

BAYRAM VA O'YIN NOMLARINING TARJIMASIDA LINGVOMADANIY MUAMMOLAR

Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti katta o'qituvchisi, f.f.f.d., (PhD)

azizbek_mengboyev@tues.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20384424>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bayram va o'yin nomlarini tarjima qilishda yuzaga keladigan lingvomadaniy muammolar tahlil qilinadi. Xususan, ingliz va o'zbek tillaridagi milliy bayram hamda xalq o'yinlari nomlarining tarjimasi jarayonida uchraydigan semantik, pragmatik va madaniy qiyinchiliklar yoritiladi. Bayram va o'yin nomlari xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlarini, milliy tafakkuri va madaniy dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq bo'lgani sababli ularni boshqa tilga tarjima qilish oddiy leksik almashtirish emas, balki lingvomadaniy transformatsiyani ham talab qiladi. Tadqiqot davomida milliy-madaniy birliklarni tarjima qilishning muhim strategiyalari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyat, tarjima, bayram nomlari, o'yin nomlari, milliy qadriyat, madaniy adaptatsiya, ekvivalentlik, pragmatika.

Abstract. This article analyzes linguocultural issues arising in the translation of holiday and game names. In particular, it highlights semantic, pragmatic, and cultural difficulties encountered in the process of translating national holiday and folk game names in English and Uzbek languages. Since holiday and game names are closely connected with a nation's historical memory, values, national mindset, and cultural worldview, translating them into another language requires not only lexical substitution but also linguocultural transformation. The study also examines important strategies for translating national and cultural units.

Keywords: linguoculture, translation, holiday names, game names, national values, cultural adaptation, equivalence, pragmatics.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвокультурные проблемы, возникающие при переводе названий праздников и игр. В частности, рассматриваются семантические, прагматические и культурные трудности, возникающие в процессе перевода названий национальных праздников и народных игр в английском и узбекском языках. Поскольку названия праздников и игр тесно связаны с исторической памятью народа, его ценностями, национальным мышлением и культурным мировоззрением, их перевод на другой язык требует не только лексической замены, но и лингвокультурной трансформации. В ходе исследования также анализируются важные стратегии перевода национально-культурных единиц.

Ключевые слова: лингвокультура, перевод, названия праздников, названия игр, национальные ценности, культурная адаптация, эквивалентность, прагматика.

Kirish. Har qanday xalqning milliy o'ziga xosligi, tarixiy taraqqiyoti va madaniy merosi avvalo uning tilida namoyon bo'ladi. Til faqat aloqa vositasi bo'lib qolmasdan, balki xalqning dunyoqarashi, urf-odatlarini, qadriyatlarini va milliy tafakkurini aks ettiruvchi madaniy hodisa ham hisoblanadi. Ayniqsa, milliy bayramlar va xalq o'yinlari bilan bog'liq nomlar xalqning ijtimoiy

hayoti, tarixiy tajribasi va madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtirgan lingvomadaniy birliklar sanaladi.

Bugungi globallashuv jarayonida turli xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar kengayib borayotgan bir paytda tarjimaning roli yanada ortmoqda. Biroq tarjima jarayonida ayrim til birliklari mavjudki, ularni boshqa tilga o'girish murakkab vazifa hisoblanadi. Bayram va o'yin nomlari ana shunday lingvomadaniy birliklardan biridir. Chunki ular faqat nominativ vazifani emas, balki muayyan xalqning mentaliteti, urf-odatlarini va tarixiy xotirasini ham ifodalaydi.

Masalan, o'zbek xalqining Navro'z, Sumalak sayli, Ko'pkari, Kurash, Chillak kabi tushunchalari muayyan madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liq. Xuddi shuningdek, ingliz tilida Thanksgiving Day, Halloween, Easter Egg Hunt, Hide and Seek kabi nomlar ham ingliz tili va madaniyatining muhim komponentlari hisoblanadi. Ularni tarjima qilish jarayonida lingvistik moslik bilan bir qatorda madaniy muvofiqlikni ham ta'minlash talab etiladi.

Bayram va o'yin nomlarining lingvomadaniy xususiyatlari – lingvomadaniyat til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi ilmiy yo'nalish sifatida til birliklarining madaniy mazmunini tahlil qiladi. Bayram va o'yin nomlari esa lingvomadaniyatning muhim obyektini hisoblanadi.

Milliy bayram nomlari ko'pincha xalqning qadimiy an'analari, diniy qarashlari yoki tarixiy voqealari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Navro'z so'zi fors-tojik tilidan kirib kelgan bo'lib, "yangi kun" ma'nosini anglatadi. Biroq ushbu bayramning mazmuni oddiy "yangi kun" tushunchasi bilan chegaralanmaydi. U tabiat uyg'onishi, yangilanish, mehr-oqibat va birlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Agar "Navro'z" so'zini ingliz tiliga oddiygina New Day yoki Spring Holiday tarzida tarjima qilinsa, uning milliy-madaniy mohiyati yo'qoladi. Shu sababli ko'plab tarjimonlar transliteratsiya usulidan foydalanadi: Navro'z → Navruz / Nowruz. Bunday tarjima milliy koloritni saqlash imkonini beradi. Shuningdek, xalq o'yinlari nomlari ham milliy turmush tarzi va madaniyatni aks ettiradi. Masalan, Ko'pkari o'yini o'zbek xalqining qadimiy chavandozlik madaniyati bilan bog'liq. Uni oddiy horse game deb tarjima qilish o'yinning mohiyatini to'liq ifodalab bera olmaydi.

Tarjima jarayonida ko'pincha quyidagi usul samarali hisoblanadi:

Ko'pkari – traditional horseback competition popular in Central Asia. Bu usul milliy birlikning madaniy mazmunini tushuntirishga xizmat qiladi.

Bayram nomlarini tarjima qilishdagi lingvomadaniy muammolar – bayram nomlarini tarjima qilishda eng ko'p uchraydigan muammolardan biri ekvivalent birlikning mavjud emasligidir. Har bir xalqning o'ziga xos bayramlari mavjud bo'lib, ular boshqa xalqlar madaniyatida uchramasligi mumkin. Masalan, "Hayit"

Mazkur birlikni ingliz tiliga "holiday" yoki "festival" deb tarjima qilish yetarli emas. Chunki "Hayit" diniy, madaniy va ma'naviy tushunchalarni o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun tarjimada izohli usul qo'llanilishi maqsadga muvofiq: "Eid" – *religious holiday celebrated by Muslims*. Bu usul tushunchaning mazmunini kengroq ochib beradi. Bundan tashqari, bayram nomlari ko'pincha tarixiy kontekst bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, "Thanksgiving Day" – o'zbek tiliga "Shukronalik kuni" tarzida tarjima qilinishi mumkin. Lekin bunday tarjima Amerika

tarixidagi kolonistlar va mahalliy aholining tarixiy tajribasini aks ettirmaydi. Shu sababli lingvomadaniy tarjimada nafaqat soʻz maʼnosi, balki madaniy kontekst ham muhim hisoblanadi.

Oʻyin nomlarini tarjima qilishdagi lingvomadaniy muammolar – xalq oʻyinlari nomlari tarjimasi ham murakkab lingvomadaniy jarayon hisoblanadi. Oʻyin nomlari koʻpincha xalq turmush tarzi, mehnat faoliyati va milliy anʼanalari bilan bogʻliq boʻladi. Masalan, “*Chillak*” – mazkur oʻyin ingliz tilida tayyor ekvivalentga ega emas. Uni oddiy “*Stick game*” deb tarjima qilish mumkin. Biroq bu tarjima oʻyinning madaniy mohiyatini aks ettira olmaydi. Lingvomadaniy yondashuv quyidagi shaklni talab qiladi: “*Chillak*” – traditional Uzbek folk game played with sticks. Bu usul orqali oʻyinning milliy xususiyati saqlanadi. Xuddi shuningdek: “*Kurash*” – soʻzi ingliz tiliga oddiy “*wrestling*” tarzida tarjima qilinishi mumkin. Lekin “kurash” oʻzbek xalqining milliy sport turi sifatida alohida madaniy ahamiyatga ega. Shuning uchun “*Kurash*” – traditional Uzbek wrestling sport varianti kommunikativ jihatdan samaraliroq hisoblanadi.

Lingvomadaniy muammolarni bartaraf etish strategiyalari – bayram va oʻyin nomlarini tarjima qilishda tarjimon turli strategiyalardan foydalanadi.

Birinchi strategiya — transliteratsiya. Bu usulda milliy nom oʻz shaklini saqlab qoladi: Navroʻz → Navruz, Koʻpkari → Kupkari, Kurash → Kurash,

Ikkinchi usul — izohli tarjima usuli hisoblanadi. Bu usul milliy tushunchaning mazmunini kengroq tushuntirish imkonini beradi. Masalan, Sumalak sayli → *traditional Uzbek spring celebration associated with preparing sumalak*.

Uchinchi strategiya — madaniy adaptatsiya hisoblanadi. Agar maqsad auditoriya uchun tushunarli ekvivalent mavjud boʻlsa, u qoʻllanadi. Masalan, “*Arqon tortish*” → *Tug of war*. Bu tarjima kommunikativ samaradorlikni taʼminlaydi. Shuningdek, zamonaviy tarjimashunoslikda kombinatsiyalashgan usul ham samarali hisoblanadi. Bu usul transliteratsiya va izohli tarjimani birlashtiradi.

Masalan: Koʻpkari (traditional horseback competition). Bu usul milliy koloritni saqlash bilan bir qatorda xorijiy auditoriya uchun tushunarlilikni ham taʼminlaydi.

Xulosa. Bayram va oʻyin nomlari tarjimasi lingvistik jarayondan tashqari madaniy interpretatsiya jarayoni ham hisoblanadi. Tarjimon milliy-madaniy birliklarning til ortidagi tarixiy, ijtimoiy va mental xususiyatlarini chuqur anglagan holda tarjima faoliyatini amalga oshirishi zarur.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, bayram va oʻyin nomlarini tarjima qilishda asosiy muammolar ekvivalent birliklarning mavjud emasligi, madaniy semantikaning yoʻqolishi hamda pragmatik moslik bilan bogʻliqdir. Ushbu muammolarni bartaraf etishda transliteratsiya, izohli tarjima, madaniy adaptatsiya va kombinatsiyalashgan strategiyalar samarali vosita boʻlib xizmat qiladi.

Lingvomadaniy birliklarni tarjima qilishda asosiy maqsad faqat maʼnoni emas, balki xalq madaniyati va milliy ruhiyatini ham tarjima vositasida boshqa til vakiliga yetkazishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maslova V.A. *Lingvokulturologiya*. Moskva, 2001.
2. Komissarov V.N. *Teoriya perevoda*. Moskva, 1990.
3. Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. Toshkent, 2008.

4. Mahmudov N. *Til va madaniyat*. Toshkent, 2017.
5. Newmark P. *A Textbook of Translation*. London, 1988.
6. Nida E. *Language and Culture*. Leiden, 2003.
7. Baker M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London, 2018.